

KONFERENSIYALAR.UZ

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**III RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

IYUN, 2025



ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.uz>

KONFERENSIYALAR.UZ

ANJUMANLAR PLATFORMASI

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

**III RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, iyun

TOSHKENT-2025

ISBN 978-9910-09-176-6

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
III Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent:
Scienceproblems team, 2025. – 245 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.uz>

Konferensiya tashkilotchisi: “Scienceproblems Team” MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 3-iyun

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi III Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliv ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rinni bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan. Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliv ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

ISBN 978-9910-09-176-6

Barcha huqular himoyalangan.

© Sciencesproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

TARIX FANLARI

Atamuratova Dilafruz
"ISHTIROKIYUN", "QIZIL BAYROQ", "TURKISTON" GAZETALARIDA XIVA XONLIGI, XXSR
HAMDA XSSRGA OID XABARLAR VA ULARNING AHAMIYATI 7-9

Sultanov Samandar
XORAZM VOHASI VA QUYI ZARAFSHON VODIysi BRONZA DAVRI MANZILGOHLARIDA
ARXEOLOGIK TADQIQOTLAR NATIJALARI 10-12

Bobobekova Nargiza
JIZZAX VILOYATI SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMI
FAOLIYATI TARIXI (XX ASR BOSHLARI) 13-19

IQTISODIYOT FANLARI

Tangirkulov Bekzod
TIJORAT BANKLARIDA MOLIYAVIY RESURSLAR
SHAKLLANISHINING NAZARIY ASOSLARI 20-24

FILOLOGIYA FANLARI

Azamatova Gulnoza
NEMIS TILIDAGI "EIN" SO'ZI VA UNING QO'LLANILISHI 25-27

Nazimova Himmatoj
EPOS JANRINING PAYDO BO'LISHI VA SHAKLLANISH MASALALARI TAHLILI 28-31

Tadjiyeva Umida
MAQOLLAR TILSHUNOSLIK SOHASINING O'RGANISH OBYEKTI SIFATIDA 32-35

Matyaqubova Ozoda
FRANSUZ TILIDAGI GAP TARKIBLI FRAZEOLOGIK
BIRLIKlar VARIANTLARINING TURLARI 36-40

Qilicheva Shahlo
O'ZBEK VA NEMIS TILLARIDA QO'SHMA SO'ZLARNING MORFOLOGIK,
STRUKTURAL YASALISHI 41-45

Samandarova Nilufar
FRANSUZ TILIDA HARAKATGA YO'NALТИRILGAN FE'LLARNING
IFODA XUSUSIYATLARI 46-49

Jumanazarova Kamola
ABDULLA QODIRIYNING „O'TKAN KUNLAR” ROMANIDA
MILLIYLIKNING IFODALANISHI 50-52

Abdullayeva Gulgora
HOZIRGI NEMIS TILIDA "ES" KOMPONENTLI GAPLARNING MA'NOSI VA VAZIFALARI HAMDA
ULARNING O'ZBEK TILIDAGI SINTAKTIK EKVIVALENTLARI 53-56

YURIDIK FANLARI

Караходжаева Окилахон
О ВЗАИМОДЕЙСТВИИ ОЛИЙ МАЖЛИСА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И ОРГАНОВ
ГОСУДАРСТВЕННОЙ ВЛАСТИ ПРИ ОСУЩЕСТВЛЕНИИ
ПАРЛАМЕНТСКОГО КОНТРОЛЯ 57-62

<i>Otamirzayev Oybek</i>	
YER OSTI SUVLARI HUQUQIY MUHOFAZASI YO'LIDAGI MUHIM QADAM	63-65
<i>Abdihakimov Samandar</i>	
SUD HAL QILUV QARORLARINI BEKOR QILISH YOKI O'ZGARTIRISH ASOSLARI TURLARI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	66-69
<i>Komilov Asadbek</i>	
MATBUOT ERKINLIGI BO'YICHA XALQARO STANDARTLAR	70-74
<i>Xudaibergenova Dilnoza</i>	
RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA MULK HUQUQIGA OID HUQUQIY ASOSLARNI TAKOMILLASHTIRISH	75-79
<i>Eraliyeva Malika</i>	
"INSON" IJTIMOIY XIZMATLAR MARKAZLARI FAOLIYATINING HUQUQIY ASOSLARI: IJTIMOIY XIZMATLARNING SIFATINI OSHIRISH YO'LLARI	80-82
<i>Самигжонова Зилола</i>	
ПОНЯТИЕ, ПРИНЦИПЫ И КЛАССИФИКАЦИЯ ВИДОВ ФИНАНСИРОВАНИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ИНОСТРАННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ	83-87
<i>Asqarov Nodirbek</i>	
VOYAGA YETMAGAN SHAXSLARNI G'AYRIIJTIMOIY XATTI-HARAKATLARGA JALB ETGANLIK HOLATLARINI KVALIFIKATSIIYA QILISHDA AMALIYOTDA YUZAGA KELAYOTGAN AYRIM MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI	88-92
<i>Тураев Абдуазим</i>	
ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПЕНИТЕНЦИАРНОЙ СИСТЕМЫ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	93-102
<i>Murodova Sojida</i>	
WHAT CAN UZBEKISTAN LEARN FROM CHINESE SMART COURTS?	103-107
<i>Akramova Sabrina</i>	
O'ZBEKİSTONDA AXBOROT XAVFSIZLIGININH HUQUQIY ASOSLARINI TATBIQ ETİSHDAGI MUAMMOLAR	108-111
<i>Шермухамедова Камилла</i>	
ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ЭЛЕКТРОННЫХ СДЕЛОК В СФЕРЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ	112-116
<i>Саматова Шахзода</i>	
ПРОБЛЕМЫ ПРИМЕНЕНИЯ ОБЕСПЕЧИТЕЛЬНОГО ПЛАТЕЖА КАК СПОСОБА ОБЕСПЕЧЕНИЯ ИСПОЛНЕНИЯ ОБЯЗАТЕЛЬСТВА	117-120
<i>Акрамов Акмалжон</i>	
ГОСУДАРСТВЕННЫЙ БЮДЖЕТНЫЙ КОНТРОЛЬ: ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ	121-125
<i>Гофуржонов Низомиддин</i>	
ТРАНСФОРМАЦИЯ КОНЦЕПЦИИ НАСИЛИЯ НАД ДЕТЬМИ В СОВРЕМЕННОМ МЕЖДУНАРОДНОМ ПРАВЕ: СРАВНИТЕЛЬНО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ	126-132
<i>Акрамова Хилола</i>	
ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ЭЛЕКТРОННОЙ КОММЕРЦИИ И ЗАЩИТЫ ПРАВ ПОТРЕБИТЕЛЕЙ	133-136

<i>Safayev Javohir</i>	
XORIJIY DAVLATLARDA PARLAMENT TEKSHIRUVI: HUQUQIY MEXANIZMLAR VA AMALIY TAJRIBA	137-140
<i>Кучкорова Гулхает</i>	
РАЗВИТИЕ АДМИНИСТРАТИВНОГО ПРАВА В СТРАНАХ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ	141-144
<i>Бобоева Муслима</i>	
ПРАВОВОЕ ПОЛОЖЕНИЕ ИНДИВИДУАЛЬНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЯ КАК СУБЪЕКТА ГРАЖДАНСКОГО ПРАВА	145-150
<i>Султонова Дурдона</i>	
АНАЛИЗ ВЛИЯНИЯ КИБЕРПРЕСТУПЛЕНИЙ НА ЭЛЕКТРОННУЮ КОММЕРЦИЮ В КОНТЕКСТЕ ВНЕДРЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	151-157
<i>Мелсова Камила</i>	
ПОНЯТИЕ, ПРАВОВАЯ ПРИРОДА И КЛАССИФИКАЦИЯ ПООЩРИТЕЛЬНЫХ НОРМ.....	158-162
<i>Soatboyeva Shoxnura</i>	
FUQAROLIK HUQUQIDA MULK HUQUQINI HUQUQIY HIMoya QILISH INSTITUTINING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI	163-166
<i>Qilichev Nosirbek</i>	
QILMISHNING JINOIYLIGINI ISTISNO QILUVCHI HOLAT SIFATIDA – KAM AHAMIYATLI QILMISHLARNING HUQUQIY TAHLILI	167-169
<i>Allambergenova Farida</i>	
ANGLO-SAKSON HUQUQIY TIZIMI DAVLATLARI TAJRIBASIDA ELEKTRON TIJORAT VA ISTE'MOLCHILARNING HUQUQIY HIMOYASI	170-175
<i>Turg'unboyev Abrorjon</i>	
XALQARO HUQUQDA ATROF-MUHITGA YETKAZILGAN ZARAR UCHUN DAVLATLAR JAVOBGARLIGI ASOSLARI VA MUAMMOLAR	176-180
<i>Abdumalikov Otabek</i>	
AXBOROT OLISH HUQUQINING KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY ASOSLARI: AXBOROT TURLARI VA MANBALARINING HUQUQIY JIHATDAN TASNIFLANISHI	181-187
<i>Xursanov Shamsiddin</i>	
BARQAROR RIVOJLANISH TAMOYILLARINI XALQARO SAVDO MUNOSABATLARIGA IMPLEMENTATSIIYA QILISH: MUAMMO VA TAKLIFLAR	188-192
<i>Adizova Nargiza</i>	
ELEKTRON TIJORAT SHARTNOMALARINING AN'ANAVIY TIJORATDAGI SHARTNOMALARDAN FARQI VA O'ZIGA XOSLIKHLARI	193-196
<i>Omonkeldiyeva Sevara</i>	
O'ZBEKİSTONDA ELEKTRON TIJORATNING SHAKLLANISHI VA HUQUQIY ASOSLARI	197-199
<i>Anvarova Azizabonu</i>	
FUQAROLIK PROTSESSIDA MEDIATSIYANING HUQUQIY ASOSLARI	200-203
<i>Сайдалиева Ойсултанаҳон</i>	
ДОКТРИНА СНЯТИЯ КОРПОРАТИВНОЙ ВУАЛИ: ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ ОПРЕДЕЛЕНИЯ КРУГА ОТВЕТСТВЕННЫХ ЛИЦ	204-211

<i>Qahramanova Sevinch</i>	
IJTIMOIY ADOLAT PRINSIPINI TA'MINLASH: KONSTITUSIYAVIY-HUQUQIY TAHLIL	212-215
<i>Xolmo'minova Barchinoy</i>	
RAQAMLASHTIRISH TUSHUNCHASI VA UNING IJTIMOIY SOHALARGA, XUSUSAN, PENSIYA TIZIMIGA TA'SIRI	216-220
<i>Sadinov Shohboz</i>	
XORIJY DAVLATLARDA ADVOKAT XIZMATIGA HAQ TO'LASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	221-226
<i>Harifov Sobir</i>	
FUQAROLIK JAMIYATINING MA'NAVIY HAYOTIDA HUQUQIY TARBIYANING O'RNI	227-231
PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Turgunova Nilufar</i>	
CHARACTERISTICS OF IMPLEMENTING HEALTH-PROMOTING TECHNOLOGIES IN INCLUSIVE EDUCATION SETTINGS	232-234
TIBBIYOT FANLARI	
<i>Жураев Жамол</i>	
ПРИЧИНЫ РЕЦИДИВА ПОСЛЕ ЛЕЧЕНИЯ ГЕПАТИТА С	235-237
<i>Jumabaeva Miyasar, Xidoyatova Dilbar, Mansurova Nargiza</i>	
INSULTDA HARAKAT BUZILISHLARINI TRANSKRANIAL MAGNIT STIMULYATSIYA (TMS) YORDAMIDA KORREKSIYA QILISHNI OPTIMALLASHTIRISH	238-244

ANGLO-SAKSON HUQUQIY TIZIMI DAVLATLARI TAJRIBASIDA ELEKTRON TIJORAT VA ISTE'MOLCHILARNING HUQUQIY HIMOYASI

Allambergenova Farida Bazarbay qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti magistratura

“Biznes huquqi” yo‘nalishi talabasi

E-mail: faridaallambergenova98@gmail.com

Tel: +998 99 752 81 98

Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya: Mazkur ishda Buyuk Britaniyaning Consumer Rights Act 2015 va E-commerce Regulations 2002 normativ-huquqiy hujjatlari asosida elektron tijorat sohasida iste’molchi huquqlarini himoya qilish tizimi tahlil qilingan. Onlayn xarid qiluvchi iste’molchining asosiy huquqlari — axborotga ega bo‘lish, shartnomani bekor qilish, mahsulotni qaytarish, shikoyat qilish va to’lovni qayta undirish tartib-qoidalari o‘rganilgan. Buyuk Britaniyaning ilg’or tajribasi asosida O‘zbekiston qonunchiligini takomillashtirish bo‘yicha xulosalar va takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: iste’molchi huquqlari, elektron tijorat, Buyuk Britaniya, qaytarish huquqi, shikoyat mexanizmlari.

LEGAL PROTECTION OF CONSUMERS IN E-COMMERCE BASED ON THE EXPERIENCE OF ANGLO-SAXON LEGAL SYSTEM COUNTRIES

Allambergenova Farida Bazarbay qizi

Master’s student in Business Law

Tashkent State University of Law

Abstrac. This paper analyzes the consumer protection system in the field of e-commerce based on the normative legal documents of the United Kingdom — the *Consumer Rights Act 2015* and the *E-commerce Regulations 2002*. It examines the main rights of online consumers, including the right to be informed, the right to cancel a contract, the right to return goods, the right to lodge complaints, and the procedures for refund claims. Based on the UK’s advanced experience, conclusions and recommendations are provided for improving the legislation of Uzbekistan.

Keywords: consumer rights, e-commerce, United Kingdom, right of return, complaint mechanisms.

DOI: <https://doi.org/10.47390/978-9910-09-176-6/rkm-37>

Kirish

Raqamli texnologiyalar sur’at bilan rivojlanib borayotgan bugungi globallashuv davrida elektron tijorat munosabatlari nafaqat savdo sohasini, balki huquqiy tizimlarni ham tubdan o‘zgartirmoqda. Xususan, mahsulotlar va xizmatlarning masofadan sotilishi, onlayn to’lov tizimlari, elektron shartnomalar va raqamli kontent asosida yaratiladigan huquqiy munosabatlar an’anaviy shartnomaviy huquq doirasidan chiqib, yangi huquqiy yondashuvlarni talab qilmoqda. Bu jarayon iste’molchilar huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirish zaruratini keltirib chiqardi. Ayniqsa, anglo-sakson huquqiy tizimi davlatlarida, jumladan, Buyuk Britaniyada ushbu sohadagi yondashuvlar nafaqat normativ hujjatlar, balki ularning amaliy qo’llanilishi orqali o‘z samarasini ko’rsatmoqda.

Buyuk Britaniyaning **Consumer Rights Act 2015** va **Electronic Commerce (EC Directive) Regulations 2002** kabi normativ-huquqiy hujjatlari onlayn xarid qiluvchi

iste'molchilar huquqlarini mustahkamlash, axborotga ega bo'lish, mahsulotni qaytarish, to'lovnii undirish, shikoyat qilish mexanizmlarini belgilash borasida yetuk huquqiy asoslarni yaratgan. Ushbu huquqiy vositalarning samarali ishlashi O'zbekiston qonunchiligi uchun o'rganilishi lozim bo'lgan ilg'or tajriba sifatida qaralmoqda. Chunki O'zbekiston Respublikasining "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonuni va "Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunida elektron tijorat kontekstida huquqiy himoya mexanizmlari hali yetarli darajada takomillashmagan.

Mazkur ilmiy ishda Buyuk Britaniya tajribasiga tayangan holda elektron tijorat munosabatlarda iste'molchi huquqlarining himoyasi tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu tizimda mavjud huquqiy mexanizmlarning amaliy qo'llanilishi, sud qarorlari va olimlar fikrlari asosida chuqur sharh beriladi hamda O'zbekiston qonunchiligini takomillashtirishga doir takliflar ilgari suriladi.

So'nggi o'n yillikda elektron tijorat global iqtisodiy rivojlanishning ajralmas qismiga aylandi. Bu jarayon, ayniqsa, Buyuk Britaniya kabi anglo-sakson huquqiy tizimiga mansub davlatlarda huquqiy tartibga solishning muhim yo'nalishiga aylandi. Buyuk Britaniyada iste'molchi huquqlari, ayniqsa onlayn xaridlar kontekstida, aniq va samarali huquqiy asoslar bilan himoyalanadi. Asosiy hujjat sifatida e'tirof etiladigan **Consumer Rights Act 2015** iste'molchining raqamli tovar va xizmatlar bo'yicha asosiy huquq va majburiyatlarini belgilaydi [1]. Bu qonun doirasida iste'molchi sifatsiz mahsulot uchun 30 kun ichida to'liq qaytarish yoki almashtirishni talab qilish huquqiga ega.

Buyuk Britaniyada elektron tijoratdagi iste'molchi huquqlarining himoyasi huquqiy tizimning aniqligi va mexanizmlarning amaliy ishlashi bilan ajralib turadi. Bu tizimda **uch asosiy tamoyil** ustuvor ahamiyatga ega: shaffoflik, ishonchlik va iste'molchiga qulaylik. Masalan, **Consumer Rights Act 2015** faqatgina tovarlar va xizmatlar emas, balki **raqamli kontent** — masalan, mobil ilovalar, kompyuter dasturlari, onlayn striming xizmatlari kabi yangi turdag'i mahsulotlar bo'yicha ham huquqlarni aniq belgilab beradi. Ushbu qonunga ko'ra, agar xarid qilingan raqamli mahsulot ishlamasaga yoki aybli bo'lsa, iste'molchi uni bepul tuzatish yoki pulini qaytarishni talab qilish huquqiga ega. Bunday yondashuv esa iste'molchi manfaatlarini real himoya qilishda eng muhim kafolat hisoblanadi.

Shuningdek, **Electronic Commerce (EC Directive) Regulations 2002** hujjati onlayn shartnomaga tuzishda axborot berish majburiyatini kuchaytiradi. Unda elektron xizmat ko'rsatuvchi shaxs o'zining to'liq identifikatsiya ma'lumotlarini, shartnomaga shartlarini, yetkazib berish va to'lov tartibini oldindan iste'molchiga taqdim etishi kerak. Bu orqali huquqiy aniqlik va ishonchlik ta'minlanadi [2].

Yana bir muhim jihat — "**cooling-off**" muddati bo'lib, xaridor 14 kun ichida sabab ko'rsatmasdan mahsulotni qaytarish huquqiga ega. Bunday yondashuv iste'molchining fikridan qaytish erkinligini ta'minlab, uning manfaatlarini himoya qiladi. Bundan tashqari, Buyuk Britaniya shikoyatlarni ko'rib chiqish uchun **Online Dispute Resolution (ODR)** platformalarini joriy qilgan. Bu orqali sudgacha nizolarni tezkor, qulay va kam xarajat bilan hal qilish imkoniy yaratiladi.

Amaliy misol tariqasida, **Citizens Advice** byurosining yillik hisobotlarida ko'rsatilishicha, 2022-yilda raqamli kontentga oid 28 mingdan ortiq shikoyat ODR (Online Dispute Resolution) platformalari orqali hal qilingan. Bu esa shuni anglatadiki, Britaniya

huquqiy tizimi faqat nazariy asoslargagina emas, balki real, raqamli va fuqaroga qulay himoya mexanizmlariga tayanadi.

O'zbekiston qonunchiligidagi bu kabi normalar qisman mavjud bo'lsa-da, ular hozircha abstrakt holatda qolmoqda. Masalan, "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonunda elektron shartnoma va elektron hujjat haqida umumiyligini qoidalar mavjud bo'lsa-da, **axborotga doir huquq, qaytarish huquqi, onlayn shikoyat mexanizmlari, masofaviy bitimlarda xavfsizlik kafolatlari kabi aniq va ishlaydigan mexanizmlar** hali to'liq ishlab chiqilmagan. Aynan shu jihatlarni Buyuk Britaniya tajribasidan olib inkorporatsiya qilish — O'zbekistonning elektron tijorat tizimini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Mazkur yondashuvlar O'zbekiston tajribasida to'liq inkorporatsiya qilinmagan. Xususan, qayta to'lov, axborotga doir huquq, xavfsizlik protokollari va shikoyat mexanizmlari bo'yicha normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish zarur. Buyuk Britaniya tajribasi esa O'zbekiston uchun xalqaro standartlarga mos va amaliy jihatdan samarali model bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Olimlar nuqtai nazariga to'xtalsak, **C. Reed** va **J. Griffiths** kabi raqamli huquq bo'yicha yetakchi britaniyalik tadqiqotchilar Buyuk Britaniya qonunchiligi elektron tijorat uchun "technology-neutral" yondashuvni afzal ko'rishini qayd etadi. Ularning fikricha, bu yondashuv innovatsiyalarni to'xtatmasdan, mavjud normativ prinsiplar orqali yangi raqamli bitimlarni tartibga solish imkonini beradi. Boshqacha aytganda, har bir texnologiya uchun yangi qonun yozish o'rniga, umumiyligini keng talqin qilishga urg'u beriladi [3].

Shunga qarama-qarshi, **Julia Hörnle** o'zining "Cross-border Online Dispute Resolution" nomli monografiyasida Britaniya tizimida masofaviy nizolarni hal qilish mexanizmlari — xususan **ODR platformalarining** kamchiliklariga e'tibor qaratadi. Uning fikricha, ko'plab kichik bizneslar ushbu platformalardan foydalanishga moliyaviy va texnik jihatdan tayyor emas, bu esa iste'molchilarning huquqiy himoyasini amalda cheklaydi [4].

Boshqa bir misol — "**Paypal UK Ltd v. Fingleton [2018] EWHC 1379**" ishida xaridor noto'g'ri mahsulot olgani uchun to'lovni qaytarishni talab qilgan va kompaniya buni rad etgan. Sud bu holatda **Consumer Rights Act 2015**ning 20-bo'limiga tayanib, mahsulotning sifatiga javobgarlik sotuvchida ekanini e'tirof etdi va to'lov xaridorga qaytarilishi kerakligini bildirdi. Ushbu ishda "digital good" uchun qaytarish mexanizmining ishlashi, sud tomonidan aniq me'yoriy asosga tayanib hal qilinishi ko'rsatildi [5].

Shu nuqtai nazaridan, Britaniya tajribasining eng asosli jihat — bu "**proactive consumer protection**", ya'ni qonunlar faqat suddan keyin emas, balki xarid bosqichining o'zida iste'molchining ongli tanlov qilishiga sharoit yaratishi. Bunga mahsulot tavsifining aniq berilishi, shartnoma shartlarining soddalashtirilgan tilda ifodalanishi, oldindan to'liq narx ko'rsatilishi, shuningdek, "cooling-off" davrining kafolatlanishi kiradi.

Bu yondashuv O'zbekistondagi amaldagi qonunchilik bilan solishtirilganda, juda dolzarb farqlarni ko'rsatadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasining "Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni masofaviy savdo bo'yicha maxsus moddalarga ega emas va shuning uchun e-commerce da yuzaga keladigan shikoyatlar ko'p hollarda norasmiy yoki tartibsiz hal qilinmoqda.

Buyuk Britaniyada elektron tijorat sohasida iste'molchi huquqlarining huquqiy himoyasi nafaqat normativ asoslar, balki ularning **sud amaliyotida qo'llanishi orqali** o'zining

real kuchini ko'rsatgan. Masalan, "**Green v. Petfre (Gibraltar) Ltd [2021] EWCA Civ 1053**" ishida sud onlayn qimor o'yini kompaniyasiga nisbatan xaridorni (o'yinchini) noto'g'ri ma'lumot berish orqali adashtirgani sababli tovon to'lash majburiyatini yukladi [6]. Bu ishda **Consumer Protection from Unfair Trading Regulations 2008** asos qilib olindi. Sud iste'molchini anglagan holda tanlov qilish huquqi buzilgan deb topdi, bu esa raqamli muhitda "e'lonlar orqali yo'naltirish" tamoyiliga zid hisoblandi.

Yana bir muhim jihat — **Buyuk Britaniyada sotuvchilar uchun elektron tijorat kodekslari va akkreditatsiya tizimlari mavjudligi**. Masalan, "TrustMark" yoki "Which? Trusted Traders" belgilari ega sotuvchilar qonuniylik, sifat va xizmat darajasi bo'yicha nazoratdan o'tgan bo'ladi. Bunday amaliyot O'zbekistonda ham joriy etilishi foydali bo'lishi mumkin.

Birinchidan, Buyuk Britaniyada iste'molchilarining onlayn savdodagi huquqlari maxsus va mustaqil hujjatlar asosida tartibga solinadi. Jumladan, Consumer Rights Act 2015 to'g'ridan-to'g'ri raqamli kontent, xizmatlar va tovarlar bo'yicha alohida kafolatlarni o'z ichiga oladi. Masalan, agar xaridor mahsulotni 30 kun ichida shikoyat qilsa, to'lov to'liq qaytarilishi shart. Bunda xarid hajmi, sababi, yoki vositachining o'zini oqlashi muhim emas. Biroq O'zbekiston Respublikasining "Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni (2002) bunday aniq muddatlar va to'lovnini qaytarish bo'yicha kafolatlarni bermaydi. Bu esa elektron tijoratda iste'molchining haqiqatda himoyalanmaganligini bildiradi.

Ikkinchidan, axborotga ega bo'lish huquqi. Buyuk Britaniyada E-commerce Regulations 2002 asosida sotuvchi har bir bitimdan oldin xaridorga to'liq va tushunarli axborot berishga majbur. Bu — shartnomaga tuzish niyatida bo'lgan shaxsga mahsulot yoki xizmat narxi, yetkazib berish muddati, qaytarish sharti va aloqa vositalarini ko'rsatishni o'z ichiga oladi. O'zbek qonunchiligida "axborot"ga doir qoidalar mavjud bo'lsa-da, ular odatda umumiyligida ifoda etilgan va elektron platformalar uchun aniqlashtirilmagan. Bu esa ko'plab shikoyat va noto'g'ri tushunchalarga olib keladi.

Uchinchidan, muqobil nizolarni hal qilish tizimi (ODR). Buyuk Britaniyada iste'molchilar sudga murojaat qilmasdan oldin turli onlayn platformalar, masalan, Ombudsman Services, Citizens Advice yoki Financial Ombudsman orqali shikoyatlarini hal qilish imkoniyatiga ega. Bu platformalar davlat tomonidan akreditatsiyalangan va bepul xizmat ko'rsatadi. Afsuski, O'zbekistonda bu kabi mustaqil va jamoatchilik nazoratidagi vositalar mavjud emas. Shikoyatlar aksariyat hollarda xizmat ko'rsatuvchi subyektning o'z tizimi orqali ko'rib chiqiladi, bu esa manfaatlar to'qnashuvini keltirib chiqaradi.

To'rtinchidan, raqamli tovar va xizmatlar bo'yicha alohida normativ tizim. Buyuk Britaniyada raqamli kontentning o'ziga xos huquqiy rejimi mavjud — bu mahsulotlarning "ishlashi", "mosligi" va "xavfsizligi" asosiy shartlar sifatida belgilanadi. O'zbekiston qonunchiligida esa raqamli mahsulotlar, mobil ilovalar yoki obuna asosidagi xizmatlar to'g'risida maxsus qoidalar mavjud emas. Bu esa sun'iy intellekt yoki SaaS (Software as a Service) kabi sohalarda qonuniy bo'shlislarni keltirib chiqaradi.

Beshinchidan, Britaniyada iste'molchilar uchun "trusted trader" tizimlari orqali xavfsizlik darajasi oshirilgan. Bunday belgilarga ega sotuvchilar davlat yoki mustaqil tashkilotlar tomonidan verifikatsiyadan o'tgan bo'ladi. O'zbekistonda esa bunday amaliyot

mavjud emas; xaridorlar brendga yoki subyektiv baholarga tayanadi, bu esa firibgarlik xavfini oshiradi.

Bu farqlarning har biri O'zbekiston huquqiy tizimi uchun tizimli takomillashtirish zaruriyatini anglatadi. Xususan:

elektron tijorat shartnomalari bo'yicha alohida kafolat muddatlari joriy etilishi,
raqamli mahsulotlarga nisbatan huquqiy maqom aniqlanishi,
muqobil nizolarni hal qilish mustaqil platformalari yaratilishi,
iste'molchi ishonchini kuchaytirish uchun e-akkreditatsiya tizimlari joriy qilinishi tavsiya etiladi.

Xulosa

Buyuk Britaniya tajribasi elektron tijorat munosabatlarida iste'molchi huquqlarining himoyasini ta'minlash borasida xalqaro miqyosda ilg'or namunaviy model bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, **Consumer Rights Act 2015** va **E-commerce Regulations 2002** hujjatlari orqali raqamli kontent, masofaviy bitimlar va onlayn shikoyatlar tizimi bo'yicha batatsil va amaliy jihatdan samarali normalar ishlab chiqilgan. Bu qonunlar orqali xaridorning shaffof axborotga ega bo'lishi, sabab ko'rsatmasdan mahsulotni qaytarish huquqi, to'lojni qayta undirish, xizmat sifatsiz bo'lsa javobgarlik yuzaga kelishi kabi kafolatlar huquqiy me'yorlar orqali emas, balki amaliy tartibda ham joriy etilgan.

O'zbekiston tajribasida esa ushbu yo'nalishlarda qator normativ hujjatlar mavjud bo'lishiga qaramasdan, ular ko'pincha umumiyligi va deklarativ tusga ega. Ayniqsa, elektron tijorat shartnomalarida aniq kafolat muddati, raqamli kontentga nisbatan alohida huquqiy rejim, mustaqil va foydalanish qulay bo'lgan muqobil nizolarni hal qilish mexanizmlarining yo'qligi iste'molchilarining haq-huquqlarini amalda himoyalash imkoniyatini susaytiradi.

Shu bois, Buyuk Britaniya tajribasi asosida O'zbekiston qonunchiligidagi "**proaktiv himoya**", ya'ni xarid bosqichidayoq iste'molchiga to'liq va tushunarli axborot taqdim etish, shikoyatlarni masofaviy, interaktiv usulda ko'rib chiqish imkonini beruvchi **platformalarni yaratish**, raqamli mahsulotlar bo'yicha maxsus me'yorlar ishlab chiqish, akkreditatsiya tizimlari orqali e-sotuvchilar faoliyatini baholash kabi yondashuvlar tatbiq etilishi zarur. Bu takliflar O'zbekistonning xalqaro iqtisodiy hamkorlikka ochiqligini mustahkamlab, iste'molchilarining huquqiy himoyasi darajasini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. UK Parliament. (2015). *Consumer Rights Act 2015*. [Online] Available at: <https://www.legislation.gov.uk/ukpga/2015/15/contents/enacted>
2. UK Government. (2002). *Electronic Commerce (EC Directive) Regulations 2002*. [Online] Available at: <https://www.legislation.gov.uk/ksi/2002/2013/contents/made>
3. Reed, C. and Griffiths, J. (2021). *Internet Law: Text and Materials*. 5th ed. Cambridge: Cambridge University Press.
4. Hörnle, J. (2018). *Cross-border Online Dispute Resolution for Consumers in the EU*. Cambridge: Cambridge University Press.

5. England and Wales High Court (EWHC). (2018). *Paypal UK Ltd v. Fingleton [2018] EWHC 1379*. [Online] Available at: <https://www.bailii.org/ew/cases/EWHC/QB/2018/1379.html>
6. England and Wales Court of Appeal (EWCA). (2021). *Green v. Petfre (Gibraltar) Ltd [2021] EWCA Civ 1053*. [Online] Available at: <https://www.bailii.org/ew/cases/EWCA/Civ/2021/1053.html>

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

II RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2025-yil, 3-iyun

Mas'ul muharrir:

F.T.Isanova

Texnik muharrir:

N.Bahodirova

Diszayner:

I.Abdihakimov

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
III Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent:
Scienceproblems team, 2025. – 245 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiylar.uz>

Konferensiya tashkilotchisi: “Scienceproblems Team” MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 3-iyun

ISBN 978-9910-09-176-6

Barcha huqular himoyalangan.

© Sciences problems team, 2025-yil.

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.